

# “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi muhokama qilindi

Avval xabar qilganimizdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi PQ-4794-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Fanlar akademiyasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi ishlab chiqildi.



Qonun loyihasi 5 ta bob va 26 ta moddadan iborat.

Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarurati quyidagilar:

So‘nggi 10 yil mobaynida dunyoda sodir bo‘lgan falokatli zilzilalar natijasida 914 ming kishi qurbon bo‘lgan, jabrlanganlar soni 2,5 mlndan ortiq kishini, umumiy iqtisodiy zarar esa 360 mlrd dollarni tashkil etgan.

Mamlakatimizning 78 % yer maydoni seysmik faol hududlarda joylashgan bo‘lib, MSK - 64 shkalasi bo‘yicha 6 va undan yuqori ballik yer silkinishlari doimiy ravishda sodir bo‘lishi kuzatiladi. Farg‘ona vodiysining aholi zich joylashgan tumanlari, Toshkent atrofi, Markaziy va Janubiy O‘zbekiston hududlari 8-9 balli yer silkinishlari sodir bo‘lishi xavfi mavjud bo‘lgan zonalarda joylashgan.

Shu sababli, mamlakatimiz aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlashning qonuniy asoslarini takomillashtirish, mas‘ul davlat organlarining bu boradagi vakolatlarini belgilash hamda kuchli zilzilalarga tayyorgarlik ko‘rish, ularning oqibatlarini bartaraf etishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjud.

Qonun loyihasini qabul qilish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

respublika aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy va huquqiy asoslari shakllantiriladi;

respublika aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlashning sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, amaldagi qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish va huquqiy tartibga solishning zarur darajasini ta'minlash uchun samarali me'yoriy-huquqiy baza yaratilishida bevosita xizmat qiladi.

Shuningdek, qonun loyihasini qabul qilinishi ijtimoiy-iqtisodiy samaralarga olib keladi (aholi va hududlarning seysmik xavfsizligi ta'minlash darajasi yangi bosqichga chiqadi, sohani uzviy rivojlanishi ta'minlanadi, seysmik mustahkam bino va inshootlarni qurilishi sifati nazoratga olinadi).

Qonun loyihasini ishlab chiqishda AQSh, Yaponiya, Rossiya, Armaniston, Qozog'iston va Qirg'iziston mamlakatlari qonunchiligi, shu jumladan ushbu sohada qabul qilingan davlat dasturlari o'rganildi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi Davlat byudjetidan qo'shimcha mablag'lar ajratilishini talab etmaydi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi seysmik xavfsizlikni ta'minlashning yaxlit tizimi yaratilishiga, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kuchli zilzilalarga doimiy tayyorgarlik ko'rib borish amaliyoti shakllanishiga xizmat qiladi.